

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ФАКУЛЬТЕТ
КАСБ-ТАЪЛИМИ (ИҚТИСОД) ЙЎНАЛИШИ**

**1-босқич 107-гуруҳ талабаси
БАХРИНИССА АХМАДАЛИЕВАнинг**

**“ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ”
фанидан тайёрлаган**

РЕФЕРАТ

Қабул қилди:

Х.Боймирзаев

Топширди:

Б.Ахмадалиева

Наманган - 2017

Mavzu: Buxoro amirligining tashkil topishi

REJA:

Kirish

1. Buxoroda amirlik boshqaruvi
1. Amirlik davlat tuzumi va ma`muriy boshqaruvi.
2. Amirlik xo`jaligi va iqtisodiyoti.

Xulosa

Kirish

Buxoroda 1711-1747 yillarda Abdulfayzxon nomigagina xon edi. Mamlakatni boshqarish Muhammad Xakimbiy otaliq qoʻlida boʻldi. 1747 yilda Abdulfayzxon bir guruh fitnachilar tomonidan oʻldirildi. Muhammad Xakimbiy ham tez orada vafot etdi. Davlat ishlari Muhammad Xakimbiyning oʻgʻli Muhammad Rahimbiy qoʻliga oʻtdi. Muhammad Rahgʻimbiy 1573 yilda Buxoro taxtini egalladi. U oʻziga qarshi isyon koʻtargan Shahrisabz, Urgut, Jizzax, Oʻrtepa, Xoʻjand, Toshkent va boshqa bekliklarda mavqeini mustahkamlab olgach, oʻzini amir deb eʼlon qildi. Shu tariqa, Buxoroda mangʻitlar sulolasi xukmronligi (1753-1920) qaror topdi. Shundan eʼtiboran poytaxti Buxoro boʻlgan davlat Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Muhammad Rahimbiy hukmronligi davrida olib borilgan urush xarakatlari xonlik iqtisodiyotini izdan chiqardi, dehqonchilik nochora ahvolga tushib qoldi. Amirlikka qarashli turli viloyat va turli xukmdorlarning mustaqillik uchun kurashi avj oldi¹.

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan boʻlsada, oʻzaro urushlar toʻxtamadi. Gʻarbiy chegaralarda esa Xiva xoni qoʻshinlari hujumga oʻtar, ekinzor va bogʻlar payhon qilinar, qishloqlar vayron boʻlar, odamlar va chorva mollari haydab ketilar edi.

Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli u XVIII asr boshlarida ikkiga boʻlinib ketdi. Ashtarxoniylar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Fargʻona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungʻorlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan boʻlib qoldi. Bunday vaziyat Fargʻonadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi.

¹ Bobobekov X. Oʻzbekiston tarixi (qisqacha muʼlamotnoma). T. "Sharq", 2000 y. 131-bet

Buxoroda amirlik boshqaruvi

Muhammad Rahim hukmronligini beklilik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, yer-mulki tortib olinib, boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini mahsus qurilgan Arkka ko'chirdi, o'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina bekliliklarga-Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Hisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi mang'itini bostirib, ularning harbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istehkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi.

Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi.

Kenagas, yuz, bahrin, burgut, saroy qabilalarining mang'itlari, hokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar harajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda g'alayon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi.

Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi-Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxon yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo

daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'imler miqdori kamaytirildi.

Ashtarxoniylar davri Buxoro xonligi uchun mamlakat siyosiy tarqoqligi va parokandaligi har qachongidan kuchaygan bir davr bo'ldi. Bu takrorlik va parokandalikning asosiy sababi esa xonlar, amirlar, sultonlar va boshqa hukmdor tabaqa vakillari o'rtasida birlik va ahillikning yo'qligi, mol-dunyo va davlat talashib o'zaro olib borilgan qirg'inbarot urushlar edi. Bu urushlar mamlakat va xalqni harob va vayron qilib, iqtisodiy hayotni nochor ahvolga soldi va izdan chiqardi. Bu hol mamlakat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi, ularning jahon hamjamiyati rivojidan orqaga qolishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy siyosiy tarqoqlik shu darajada tus oldiki, natijada mahalliy hukmdorlar markaziy hokimiyatni nazar-pisand qilmay qo'ydilar. Xonlar mahalliy hukmdorlarni o'ziga dushman bo'lib qolishi mumkinligidan xavfsirab ularni yangi erlar, daromadli lavozimlar ulashardilar. Maslan: mang'itlar sulolasi vakillariga eng yuqori lavozim-otaliq, durmonlarga parvonali, qatag'onlarga buxoroning oliy yasavuli lavozimlarini berilgan edi. Oqibat shunday bo'ldiki, taqdirini o'shalar hal etadigan bo'lib qoldi. Ashtarxoniylar davrida vujudga kelgan katta davlat boshqaruv tarmoqlari harajatlarini qoplash xalqning gardaniga tushgan edi. SHuning uchun ham bu davrda qirqqa yaqin har xil soliqlar joriy etilgan edi. Ashtarxoniylar davrida ham ruxoniylar deyarli cheklanmagan huquqqa ega bo'lib oldilar. Ular maktab, adabiyot va ilmning o'z ta'sirlariga olganlar. YAna ular diniy mutaasiblikning pasayishiga, ozgina bo'lsada biron-bir fikrning mamlakat hududiga kirib kelishiga yo'l qo'ymaganlar. YAna shuni ham aytish kerakki, bu davrda oliq-soliqlarning ko'pligi, mahalliy hukmdorlar, ayniqsa soliq undiruvchilarning zulmi tobora ortib borayotgani tufayli xalq ahvoli og'irlashib ketgan edi. Ashtarxoniylarning eng zaif tomoni shu ediki, ular davrida mamlakat doimo yangi muntazam armiyaga ega emas edi. Xonlar urush paytida zarur bo'lib qolganda qo'shin sifatida o'zlariga qaram bo'lganamirlarning lashkarlaridan foydalanar edilar. Ashtarxoniylar davrida mamlakat hayoti butunlay izdan chiqqan

edi. Mamlakat tom ma'noda inqirozga yuz tutdi. Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmdorligi davrida o'zbek qabilalaridan mang'itlar va qo'ng'irotlarning nufuzi baland edi. Bu ikki qabila haqiqiy hokimiyat ashtarxoniylar qo'lida bo'lganida ularga sadoqat bilan xizmat qilgan edi. Biroq keyinchalik, Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar. Muhammad Hakimboy davrida 1743 yilda vafot etgan edi. Uning o'g'li Muhammad rahimbiy o'zining muntazam qo'shiniga egaligidan foydalanib hokimiyatda otasi kabi alohida mavqei uchun da'vogarlik qila boshlaydi. So'nggi ashtarxoniylar abdufayzxon unga bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'ldi va oxir oqibatda markaziy hokimiyat uning qo'lga to'plandi. Nodirshoh o'lganidan so'ng eronda boshlangan ichki kurashlar M. Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon ham 1747 yil o'ldirildi. M. Rahimbiy taxtga Abulfayzni o'g'li Abdulmo'minni o'tkazadi va uni o'ziga kuyov qilib oladi. SHu tariqa amalda hokimiyat Mang'itlar qo'lga o'tadi. Ko'p o'tmay M. Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni ham qatl ettiradi. Tez orada M. Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarning qo'llab -quvvatlashi bilan 1753 yil o'zini xon deb e'lon qiladi. Biroq, mang'itlar xonn nasliga mansub bo'lmaganligi uchun undan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining hukmdori-amirulmo'minin hisoblanganlar. SHundan bogshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi. Mang'itlar 92 o'zbek qabilasining biri bo'lib ular Buxoroda 1756 yili hokimiyat tepasiga rasman mang'itlar sulolasi hukmronligini o'rnatdilar va davlatni 1920 yilgacha boshqardilar.

Amirlik davlat tuzumi va ma'muriy boshqaruvi.

Mang'it hukmdori Muhammad Rhimxon (1756-1758) mamlakatda o'zining mutloq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad-markazlashgan davlatni tiklash edi. M. Rahimxon bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qattiq kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziyhokimiyatga

bo'ysunmasa, undaylarni ayovsiz jazoga tortishni ogohlantirdi. M. Rahimxon mustaqillik da'vo etib yurgan Miyonkol, Nurota, Kobodiyon, Boysun. SHahrisabz hamda Urgut beklklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda u bo'yskundirishni istamagan qabilalarni turgan joyidan ko'chirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, burkut, qipchoq, etti urug', baxirin, yuz, kenagas, saroy va boshqa qabilalarga nisbatan shunday siyosat yuritd²i.

Muhammad Rahimxon vafotidan (1758 y.) so'ng uning amakisi Doniyolbiy Otaliq- hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1758-1785).g' U o'zini xon atadi va abulfayzxonning nabirasi Abulg'ozini taxtga o'tqazdi. O'zini esa amir deb e'lon qildi. Barcha mang'it beklariga katta er-mulkni tanmo qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida Balx, Hisor, Qulob, O'ratepa beklklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta er egalari qushbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini esa sindirolmadi. O'g'illaridan biri SHoxmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Kuyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratardi. Xalq orasida obro'si katta bo'lgani uchun Doniyolbiy uni o'ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo'ldi.

Amir Shomurod Doniyol otaliqning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1749 yilda tug'ilgan. YOshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib, darvishlik suluki solixlaridan biriga aylandi. SHuning uchun xalq uni hurmat bilan «amirni ma'sum» (begunoh amir) unvonini b'ergan. O'n nafar ukalaridan (Muhammad, Umar, Fazl, Sultonmurod, Rustam, Ganji, Ali, YAqub, To'xtamish, Darvish, Rajabali) birortasi ham SHomurodni yoqtirmas edi. Amirlik taxtiga chiqqan ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi. Zolim qushbegi va qozikalon Nizomiddinni qatl ettiradi. Hokimiyat boshqarish isloh qilib, siyosiy tarqoqlikka barham beradi. U o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qat'iy amal qildi. Masalan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylak kiygan, boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan shaxtiyon mahsi hamda kovush kiygan. Marv yaqinida Islomobod shahrini

² O'zbekiston tarixi. T.: "O'AJBNT" Markazi, 2003 y. 315-bet

qurdirgan. U etti yil davomida xaroba holida yotgan Samarqand shahrini yangi proektini o`zi chizgan va shaharni qayta tiklagan. SHahar markazida olti qirrali chorsu qurilib, «Turki muqaddas» deb atalgan<sup>3</sup>. Samarqandni har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrisarlarni o`zi tayinlagan. Talabalar va mudarrisarlarning maoshi uchun vaqf erlari va mulklar ajratgan. Amir SHohmurod bundan tashqari Guzor tumanida madrasa va masjid qurdirgan. Buxoroning Ja`farxoja mahallasiga madrasa qurdirgan. Uning amaldorlaridan O`tkir qushbegi Muhammad aldi to`pchiboshilar ham bittadan madrasa qurdirganlar. Amir SHohmurod ba`zi silohotlar o`tkazdi, davlatni mustahkamlashga erishdi: boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Rais mansabini va qo`shin tarkibida qoziaskar lavozimini jorimy qildi. Otasi davrida qisqartirilgan vaqf erlari miqdorini oshirdi, bu bilan islom ruhoniylari e`tiborini qozondi. Mamlakat iqtisodini yo`lga qo`yishda SHohmurod o`tkazgan pul islohoti muhim ahamiyat kasb etdi. U sof kumushdan tanga zarb etishni buyurdi. Kimning kumushi (nukrasi) bo`lsa zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar-pul olishi mumkin edi. Ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Barcha viloyatlarga hokimlar tayin qilindi. Har shahar va qishloqqa qozi tayinlandi. Bu bilan hokimlar o`zboshimchaligiga barham berildi. SHohmurod qozilarga dastur bo`la oladigan fikr haqida «Ayn ul-hikmat» nomli risola yozdi. Unda ilgari surilgan qoidalarni barcha viloyatlarga joriy qildi. SHariat qonunlarini amalga tadbiq etish maqsadida raislik (muxtasib) mansabini joriy qildi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi karvon yo`llarining xatarsizligini ta`minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo`ldi. Natijada davlat xazinasiga tushum ko`paydi.

Buxoro davlati dastlab xon, keyinchalik, ya`ni butun davlat hokimiyati qo`lida bo`lgan yakka mustabid hukmdor-amir turar edi. SHayboniylar va Ashtarxoniylar davrida belgilangan an`anaga ko`ra, sulolaning katta yoshdagi vakili xonlik taxtini egallasada, amalda bu qoidaga rasmangina rioya etilardi. Amalda qudratli harbiy kuchga tayangan hukmdorgina haqiqiy hokimiyat egasi bo`la olardi. Hukmdor etib saylangan taxt da`vogari oq kigizga o`tqazib taxtgacha ko`tarib olib borilardi.

³ Bobobekov X. O`zbekiston tarixi (qisqacha mu`lamotnoma). T. «Sharq», 2000 y. 132-bet

Kigizni to'rt uchini avlodlarning eng mo'tabar zotlari, mashhur amirlar, ruhoniylar vakillar tutardilar. Balog'atga etmagan shahzodalarni tarbiyalash uchun otaliqlar tayinlanardi. Shahzodalarga viloyatlar ajratadilar va shahzoda u erda o'z otalig'i bilan yashardi. Katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, hamda o'z xizmati bilan obro' va hurmat qozongan amirlar otaliq mansabiga tayinlangan edilar. endilikda otaliq unvoni o'zining harbiy va iqtisodiy nufuzi bilan davlatning tayanchi bo'lib qolgan, hatto hukmdor ham davlat ishlarini boshqarishda u bilan hisoblashishi majbur bo'lgan qudratli amirlar oladigan. Bunga mang'it sulolasi va hukmdor M. Rahimbiy va uning akasi Doniyolbiy tarixi yorqin misol bo'la oladi. Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. U davlatni o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlarga (arkoni davlat)ga tayanib idora qilgan. Biroq hukmdor amalda hamisha ham davlatni o'z hohishiga ko'ra boshqara olmagan.

Amirlik xo'jaligi va iqtisodiyoti

Buxoro amiri 40 viloyat va turkmanliklarga bo'lingan. Er maydoni taxminan 270 ming km kvadratga, aholisi esa 2 mln atrofida edi. Aholisining taxminan 57% ni o'zbeklar, 32, 5% tojiklar va boshqa xalqlar tashkil qilar edi.

Dasturxonchi-xon huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun ma'sul amaldor. Tuksoba- amir tug'i sohibi, keyinchalik-umuman harbiy mansabdor. Parvonachi-biror-bir shaxs biror-bir lavozimga tayinlanganida, bu haqdagi yorliqni o'sha shaxsga va boshqalarga etkazuvchi amaldor. Sadrlar-vaqf mulkini boshqaruvchilari. SHayxulislom-musulmon jamoasi boshlig'i. Poytaxt qozisi (Qozikalon) davlatning oliy qozisi. Muftiy-qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqargan. Muxtasib-(rais ham deyilgan)-musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatgan, masjidlarga borib namoz o'qishga keluvchilar ro'yxatini, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshiradi. Amirlikdagi yuqori davlat lavozimlari o'sha davrdagi boshqaruv tizimiga to'la mos bo'lib, amirning yakka hukmronligini ta'minlar edi.

Buxoro davlatida mulkchilikning asosida er-suv tashkil etgan. Minglarcha yil avval bo'lganidek, so'z yuritilayotgan asrlarda ham oliy hukmdor (xon yoki amir) mamlakatdagi bor er suvning birdan-bir egasi hisoblangan. Ayni paytda Buxoroda er suv mulkchilikning uch shakli mavjud edi: 1) davlat erlari (bu amlok erlar deb ham atalgan). 2) Mulk erlari (xususiy). 3) Vaqf erlari. Davlat erlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu erlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday erlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat erlarini boshqa bir qismi yirik er egalriga, hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida inom etilgan edi. XV-XVI asrlarda suyurg'ol berish juda keng tus olgan. Suyurg'ol olganlar u erni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi. Siyosiy tarqoqlik tufayli markaziy hokimiyat zaiflashuvi oqibatida yirik er egalarning davlat hayotidagi mustaqilligi va qudrati shu darajada oshgan ediki, endilikda ular markaziy hokimiyatda qaram bo'lmay qoldilar. Natijada, bunday er egalari XVII-XVIII asrlarda suyurg'ol erlarini o'zlarining doimiy mulklariga aylantirib olganlar hamda ularni meros qoldirish huquqini qo'lga kiritganlar. Xiroj ham to'lamay qo'yganlar. Bu hol keyinchalik siyosiy parokandalik kuchayishiga, markaziy hokimiyat zaiflashuvsiga olib keldi.

Buning oqibatida davlat erlari qisqarib borgan. Xususiy erlarning bir qismi xususiy shaxslarning erlari bo'lib, ularning bu erlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday erlar asosan arablarga qarashli erlar bo'lgan. Bu erlar soliqdan ozod qilingan edi. Lekin daromadning 1G'10 qismi miqdorida o'lpon to'lardilar. Vaqf erlari-bu masjid, mozor, xonaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan erlar edi. Bunday erlar musodara etilgan erlar hisobiga vujudga keltirilgan edi. Vaqf mulkidan mutavvali tasarruf etishga belgilab qo'yilgan edi. Tokzor, yo'ng'ichka, mevali daraxtlardan tanobona olingan. 1807 yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob erdan bir tildan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa,

hosilning o'ndan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba`zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan. SHohmurod zamonida har bir ziroatchidan qushpuli erdan (40 tiyin) olingan. Kanallar, inshoot, qal`a, ko`priklar, yo`llar ta`miri hashar yo`li bilanamalga oshirilgan. Boshqa hasharchilar oziq-ovqat bilan ta`minlangan. XVII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqat, ish asboblari, ot aravasi bilan kelishi lozim bo`lgan. Buxoro davlatida qishloq xo`jaligining taqdiri sun`iy sug'orishning qanchalik to`g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Afsuski xonlar va amirlar bu muammoni to`la hal etolmaganlar. Aksincha, ular bu ham etmaganidek, o`zaro bosqinchilik urushlari, ichki siyosiy nizolarni kuchaytirdilar. Oqibatda sug'orish inshootlariga juda katta talofot etgan. Buxoro davlati iqtisodi asosini ziroatchilik va chorvachilik tashkil etgan. Buxoro xonligi hududida Zarafshon Xurmo va Sarazm nahr (kanallari) chiqarilgan. Ulardan biri to`rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo`lgan. Daryo va kanallarga o`rnatilgan chig'irich eng ko`p ishlatiladigan suv ayirgich edi. SHunday chigiriklar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan balandga ham ko`tarib bera olar edilar. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun suv ayirgichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshshak, ho`kiz kuchidan foydalanar edilar. Amirlik erlarini paxta, bug'doy, arpa, jo`xori, tariq-, beda etishtirish dehqonchilikni asosan tashkil qilar edi. Buxoroda bo`yoq olinadigan o`simlik (mardona) ham o`stirilar, dorivor o`simliklardan esa dorilar tayyorlanar edi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri temirchilik va msigarlik bo`lib, o`roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog' yasashgan. Zargarlik ham muhim soha hisoblangan. Siyosiy tarqoqlikning salbiy oqibatlarga qaramasdan O`rta Osiyo xalqlari yaratuvchanlik mehnati bilan o`z munosib o`rinlariga ega bo`ldilar. Buxoro davlatining jahon bozori ham ta`sir etmasdan qolmadi. Xonliklarga oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarish dehqonchilik kabi iqtisodiyot etakchi tarmoqlaridan biri bo`lib qolgan. Bozorlarda xilma-xil gazlamalar0ip gazlama, jun gazlama, shoyi va boshqalar, shuningdek, tayyor kiyimlar, metal buyumlar, qurol-yarog', zargarlik buyumlari, teri va charm mahsulotlari, kulolchilik mahsulotlari, jundan, qamishdan to`qilgan buyumlar, qog'oz va kitob, bo`yoq,

yog'och, o'tin, toshko'mir, qishloq xo'jalik mahsulotlaridan don, sabzavot, meva, non, go'sht va boshqalar bilan savdo qilinardi. Bozorlar turli mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan, sotuvchilar uchun rasta ajratib berilgan edi. Buxoroda narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligi qattiq nazorat qilinarda, kimki xaridor haqqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi. Ularni yarim yalang'och holda aravada bozor ahliga namoyish qilish uchun sazoyi qilinardi. Agar kimki birinchi bor o'g'irlik qilib qo'lga tushsa, qilcha chap qo'lini, ikkinchi bor o'g'irlik qilsa, tushcha o'ng qo'lini kesilar va bunday jazo xalq ko'z oldida amalga oshirilardi. Bozorlarda hukmdorlarning farmonlari o'qib eshittirilardi, aybdorlar jazolanardi, bayram kunlari turli tomoshalar ko'rsatilardi edi. Buxoro davlati so'z yuritilayotgan asrlarda jahon bozori faol ishtirokchiligidan ajralib qolgan edi.

XV asr oxirida O'rta er dengizi bandargohlariga olib boradigan Buyuk Ipak yo'li Usmoniy turklar davlati tomonidan yopib qo'yilgan va keyinchalik boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar tufayli jahon savdosi dengiz yo'llari orqali olib borilishi Buxoro davlatini jahon bozoridan ajratib qo'ydi. SHunga qaramay mamlakatni tashqi savdo aloqalari butunlay to'xtab qolgani yo'q. Buxoro, Hindiston, Afg'oniston, eron, Qozon xonligi, Astraxan shaharlari bilan savdo aloqalarini olib bordi. Bu davlatlarga ip gazlamalar, baxmal, qog'oz, egar-jayubduqlar, qurollarni ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari qatnardi. Buxoro davlati tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. O'rta osiyo shaharlarida savdo markaziy xiyobonlardagi usti yopiq chorsularda olib borilgan. Samarqand, SHahrisabz shaharlarida bunday joylar «tim», «chorsu» ham deyilgan. Buxoroda 5 ta tim bo'lgan. Bu Buxoro tijorati va bozorlarining obodligidan guvohlik beradi. CHorsuni Buxoroda TOK ham deyilgan. Registon va boshqa maydonlarda do'konlar joylashgan. Buxoroda savdo ishini karvonboshi boshqargan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Amir tayinlaydigan va hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan. Biror bir hududning viloyat deb belgilanishi uchun o'sha joyda yuqori martabali amaldor bo'lishi kerak edi. Amirlikni poytaxti Buxoro shahri va viloyatni qushbegi boshqargan, amirlikning alohida davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayangan amaldor rahbarlik qilgan. Saroyda 300 ga yaqin amaldor xizmat qg'ilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilar soni 300 atrofida bo'lgan. Bundan tashqari, 40 beklik tepasida devonbegi, ko'kaldosh, qushbegi, mushfiq, mirshab, dodxox, inoq, mirokor, dasturxonchi, kitobdor, taksoba, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muxtasib kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan. eng katta lavozim-qushbegi (vaziri buzrug) ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Barcha ijroiylar hokimiyat qushbegini qo'lida bo'lgan. U oliy hukmdor arkida yashagan. Devonbegi-davlatning moliya xazina ishlarini boshqargan. U ark tagida yashagan. Ko'kaldosh-butun amirlik hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumot to'plagan. Mushrif-lavozimida ishlagan amaldorlar xonga inom etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.

Ashtarxoniylar davrida vujudga kelgan katta davlat boshqaruv tarmoqlari harajatlarini qoplash xalqning gardaniga tushgan edi. SHuning uchun ham bu davrda qirqqa yaqin har xil soliqlar joriy etilgan edi. Ashtarxoniylar davrida ham ruxoniylar deyarli cheklanmagan huquqqa ega bo'lib oldilar. Ular maktab, adabiyot va ilmning o'z ta'sirlariga olganlar. Yana ular diniy mutaasiblikning pasayishiga, ozgina bo'lsada biron-bir fikrning mamlakat hududiga kirib kelishiga yo'l qo'ymaganlar. Yana shuni ham aytish kerakki, bu davrda oliq-soliqlarning ko'pligi, mahalliy hukmdorlar, ayniqsa soliq undiruvchilarning zulmi tobora ortib borayotgani tufayli xalq ahvoli og'irlashib ketgan edi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. «Sharq» 1998.
2. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T. «Sharq» 1999.
3. Bobobekov X. O`zbekiston tarixi (qisqacha mu`lamotnoma). T. «Sharq», 2000 y.
4. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi. 2-jild. T. «Sharq» 2003.
5. O`zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T.: Fan, 1993.
6. O`zbekistonning yangi tarixi. 1-2 jildlar. T. «Sharq» 2000.
7. O`zbekiston tarixi. T.: «O`AJBNT» Markazi, 2003 y.